

## ALEKSAND FAYNBERGNING “VATAN” SHE’RI TAHLILI

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti*  
*Xalqaro jurnalistika fakulteti*  
*talabasi Axmedova Zarina*

**Annotatsiya:** *O‘zining ijodi va tarjimalari bilan o‘zbek, rus va ko‘plab xalqlarning mehrini qozonishga ulgurgan. Ijodida barqarorlik uncha kuzatilmagan bo‘lsada, yozib ketgan asarlari shoirning chuqur ma‘naviyatga ega ekanligidan darak beradi. Faynberg o‘z tarjimalari bilan o‘zbek millatining adabiyoti o‘ziga tortuvchi ohangrabosi bilan ajralib turishini butun dunyoga isbotlab qo‘ydi. Bizning shoirlarimiz qilgan ishini yillar davomida yozishsa ham, tugatib bo‘lmaydigan darajada adabiyotning cho‘qqisiga chiqarib qo‘ydi desak ham bo‘ladi. Bu bizning shoirlarimiz yetuk ma‘naviyatga ega ekanligidan dalolat beradi.*

**Kalit so‘zlar:** *she‘r, millat, adabiyot, to‘plam, meros, yozuvchi, vatan, xalq.*

### KIRISH

Aleksandr Faynbergning ko‘p millatli o‘zbek adabiyoti rivojiga qo‘shgan hissasi haqiqatan ham ulkandir. Toshkent, Moskva va Sankt-Peterburgda nashr etilgan o‘ndan ortiq she‘riy to‘plamlar muallifi. U “Mening katta akam”, “Eng moviy osmon yonida”, “Issiq quyoshdagi uy”, “Qandahor kuydirgan” va boshqa badiiy filmlar uchun yettita ssenariy yozgan. Shuningdek, u yigirmata animatsion filmlar ssenariysi muallifi. Uning nasri katta qiziqish uyg‘otadi. Ajoyib tarjimon Aleksandr Arkadyevich rusiyabon o‘quvchiga mashhur o‘zbek shoirlarining ko‘plab asarlarini ochib berdi.

Erkin Vohidovning “O‘lmaslar qo‘zg‘oloni” she‘ri Moskvada, Toshkentda Abdulla Oripov, Xosiyat Rustamova, Sirojiddin Sayid, Rustam Musurmon she‘rlari tarjimalari bilan “Oqqush suruvi” to‘plamida nashr etildi. Faynbergning o‘zi qalamiga mansub qo‘shiq matnlari esa “Chigir” to‘plamida o‘zbek tilida ommaga chiqarildi. 2009-yil 2-aprelda O‘zbekiston Davlat akademik rus drama teatrida Rossiya Federatsiyasining O‘zbekiston Respublikasidagi Muvaqqat ishlar vakili tomonidan Vazix Serazev O‘zbekiston xalq shoiri, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va Kinematograflar uyushmasi a‘zosi Aleksandr Faynbergni Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Dmitriy Medvedev farmoniga binoan “Pushkin” medali bilan taqdirladi. Rossiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi madaniy aloqalarni rivojlantirish borasida minnatsiz xizmatlari singan. 2009-yil 14-oktyabrda Aleksandr Arkadyevich vafot etdi.

Faynberg vafot etgani bilan uning xotirasi mangu, o‘chmas iz bo‘lib, tarix zarvarog‘larida qoldi. Shoirimiz haqida ko‘plab mashhur insonlar o‘zining iliq va samimiy xotiralari bilan eslab, maqtaydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday degan: “Adabiyot – xalqning yuragi, elning ma‘naviyatini ko‘rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo‘l toppish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlashtirishda adabiyotning ta‘sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o‘rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz.”

Taniqli o'zbek shoiri Abdulla Oripov "Aleksandr Faynbergning ijodiga kelsak, barcha baland so'zlar haqiqatning yuzdan bir qismini ham aks ettirmaydi, chunki u aslida noyob shoir va tarjimon edi. Jahon darajasidagi yozuvchi, rus tilida so'zlashadigan yozuvchilardan hech biri bizning quyoshli diyorumizga samimiy qo'shiq kuylashi mumkin emas." - deb ta'riflagan edi.

Sevikli va ardoqli shoirimizni ta'riflashga so'z ojiz. U yozgan she'rni biz bugun hayrat bilan o'qib o'tiribmiz. She'r odamzotning qalb nolalaridir. Uning ichidan chiqqan har bir so'z bejizga ishlatilmaydi. Qalbdan chiqqan so'zlar ta'riflarsiz yurakka yetib boradi. Mana shunday she'rlardan biri "Vatan".

VATAN

Quyoshli, to'rtburchak dalalardan to  
Tizma tog'largacha cho'zilgan Vatan –  
Yo'llarning girdida bo'lib girgitton  
Gumbazdek teraklar turarlar qator.  
Dalalarni kezdin qadamma-qadam,  
Teodolit ko'tarib, o'lchadim tanob.  
Loysuvoq uylarda simirdim chalob,  
Eshiksiz hovlilar ochiqdir mudom.  
Mushfiq yurt. Shu yerda nasl-u nasabim –  
O'zbekistondadir xokim, turobim.  
Hoy, Yevropa! Seni tanimayman ham.  
Mag'rur parvoz etar burgut falakda.  
O't tishladim. Labda sho'r ko'z yosh. Bu dam  
ham dardni, ham baxtni tuydim yurakda.

Ushbu she'rni boshidan o'qishingiz bilan bilinib turibdiki, bizning muqaddas vatanimiz-O'zbekiston haqida. Vatan haqidagi barcha she'rlar qalblarga boshqacha halovat beradi. Musofirchilikda yurganlar vatan sog'inchi azobida kuyishi va qalblariga esa vatanini eslatuvchi narsalar taskin berishi bor gap. Axir Zahiriddin Muhammad Bobur ham vatanidan kelgan qovunni hidlab, ko'ziga yosh olib yegan deb ta'riflanadi.

Quyoshli, to'rtburchak dalalardan to  
Tizma tog'largacha cho'zilgan Vatan –  
Yo'llarning girdida bo'lib girgitton  
Gumbazdek teraklar turarlar qator.

Boshlanuvchi to'rt qatordagi misralarda O'zbekistonning serquyosh o'lkaligiga, paxta, bug'doy va ekin-tekin mahsulotlari ko'p ekilishi, millionlab gektarlarimizda yig'ib-terim ishlari bo'lishiga ta'rib berilmoqda. Shuni yod olishimiz kerakki, biz Rossiyaga mustamlaka vaqtlarimiz mana shu gektarlab ekilgan paxta dalalariga chorlangan erkak-ayollarni qanchalik xo'rlangani, ularga qul, hatto hayvonchalik munosabatda bo'lmaganligi mashhur va iste'dodli yozuvchilarimizning asarlarida o'qishingiz mumkin. Achinarlisi, "Paxta ishi" deb nomlangan tergov ishlarida minglab oddiy va begunoh xalqning boshiga qatog'on kunlarining yog'ilishiga

ham o'sha "to'rtburchak dalalar" aybdor. O'tgan asrlarda terak ko'p ekilgan. Teraklar qurilish ishlarida juda kerakli, pishiq va chidamli obyektidir.

Dalalarni kezdim qadamma-qadam,  
Teodolit ko'tarib, o'lchadim tanob.  
Loysuvoq uylarda simirdim chalob,  
Eshiksiz hovlilar ochiqdir mudom.

Bu qatorlar esa milliyligimizdan guvohlik bermoqda. Mamlakatimizda shaharlashtirish ishlari, zamonaviy binolar qad rostlamagan, avtomobillar bo'lmagan davrda faqat dalalar bor edi. Xalqimiz mehnatsevar, chidamli, sabr-toqatli, ekin-tekin yetishtirishda bilimdon ekanligiga urg'u bermoqda. Dehqonlarimiz dori vositalarsiz mo'l-ko'l hosil olishni juda yaxshi bilgan. Esingizda bo'lsa, bobo-buvilaringizni keng va ko'p xonali, ba'zan kichik-past xonachalardan iborat uylariga borardingiz. Yozning issiq kunlari dalada ishlayotgan odamlarga chaloblar qilib borilar edi. Quyosh taftini yengish uchun. U davrda ta'mirlash ishlari yevropachalashmagan edi. Oddiygina, ko'rimli qilib loysuvoq qilib qo'yilar edi. Ammo o'ziga yarasha gashti, ko'rki bo'lgan. "Eshiksiz hovlilar" deb uyini devorlar, darvozalar bilan berkitmagan o'zbeklarni nazarda tutmoqdi. Mehmondo'st xalq deb ta'riflashlaricha borda. Kim kelsa bemalol kirib kelaverishgan. Ko'ngli to'g'ri bo'lgan. O'g'rilik haqida o'ylashmagan. Bu satrlarda o'zbeklarni halol, pok, iymonli, bolasevar, mehmondo'st deb ta'riflagan.

Mushfiq yurt. Shu yerda nasl-u nasabim –  
O'zbekistondadir xokim, turobim.  
Hoy, Yevropa! Seni tanimayman ham.  
Mag'rur parvoz etar burgut falakda.  
O't tishladim. Labda sho'r ko'z yosh. Bu dam  
ham dardni, ham baxtni tuydim yurakda.

Oxirgi jumlar esa, Faynbergning O'zbekistonda tug'ilganligi va bundan afsuslanmasligi haqida gap ketmoqda. O'zi yashab-ijod etgan yillar oson kechmaganligi, har qadam qiyinchiliklarga to'la ekanligi, buni esa sekingina sho'r ko'z yoshlar orqali qalbidan chiqarib yuborishi ko'ngillarni xira qiladi. Shunday asarlar borki, yig'lab o'qiysiz. Chunki yozuvchi uni yig'lab yozgan bo'ladi. Yozuvchi uchun ko'z oldida bo'layotgan nohaqliklar, asarlarining qahromonlari oddiy aholining qiynalishi, tuxmatlarga uchrashishini ko'rib turib, faqatgina qo'lidan yozish kelishini bilish juda og'ir vaziyatdir.

Xulosa qilib aytganda, istiqlol barcha sohalar qatori milliy adabiyotimiz, muazzam she'riyatimiz rivojida yangicha yuksalishlarga asos soldi. Mamlakatimizda she'riyatga, ijod ahliga munosabat borasidagi ezgu yondashuv, avvalambor, xalqimizga xos yuksak badiiy did va she'rsevarlik fazilatining yorqin in'ikosidir. Buni nafaqat ijod ahli, balki adabiyot muxlislari ham yurak-yurakdan his etib yashamoqda.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. <https://yuz.uz/uz/news/aleksandr-faynbergning-yorqin-xotirasiga>
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/aleksandr-faynberg-qalblarda-mangu-yashaydi>
3. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi